

“OILA TARBIYASI MADANIYATI: MUAMMOLAR, XATOLIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI”

Ergashova Elinura Baxtiyor qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ma'lumki, oila tarbiyasi avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladigan ma'naviy qadriyat bo'lib, u jamiyat hayotida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada oila tarbiyasining jamiyatdagi o'rni, uning inson kamolotidagi ahamiyati hamda tarbiya jarayonida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar haqida so'z yuritiladi.*

Annotation: *It is known that family upbringing is a spiritual heritage passed down from generation to generation, serving as a bridge between them. This article discusses the role of family upbringing in society, its importance in human development, and the mistakes and shortcomings that may occur in the process of upbringing.*

Аннотация: *Известно, что семейное воспитание является духовным наследием, передаваемым из поколения в поколение и выполняющим роль моста между ними. В данной статье рассматривается роль семейного воспитания в обществе, его значение в развитии личности, а также ошибки и недостатки, допускаемые в процессе воспитания.*

Oila bolani tarbiyalashda eng birinchi maktab vazifasini bajaradi. Oiladagi tarbiya bolaning axloqi va jamiyatdagi o'rniga bevosita ta'sir qiladi. Har bir oilada bola mehr, e'tibor orqali voyaga yetishi kerak. Ammo ko'p hollarda oilalarda tarbiya jarayonida ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Ko'pincha oilalarda haddan ortiq nazorat yoki e'tiborsizlik kabi xatolar bo'ladi.

Tohir Malikning “Talvasa” asarida inson ruhiyatidagi iztirob, tushunilmaslik, yolg'izlik holatlari tasvirlanadi. Asarda turli personajlar orqali oilalardagi befarqlik, mehr yetishmovchiligi va ruhiy muvozanatsizlikning oqibatlar ochib beriladi. Yozuvchi bunday holatlarning ildizida insonlar o'rtasidagi samimiy muloqot yo'qolishi turganini ko'rsatadi. Bu badiiy lavhalar zamonaviy nuqtai nazarlardan ham muhim – bola bilan muntazam muloqot qilmaslik, uning fikrini tenglamaslik tarbiyadagi eng katta xatolikdir.

Ba'zi ota-onalar boladan mukammalini talab qiladilar, har bir ishini tanqid qiladilar. Bu bolada o'zini ortiqcha sezishi, ruhiy tushkunlikka tushib qolishi va ishonchsizlikni olib keladi. Bolalarda ruhiy holatlariga ta'sir qiladigan yana bir tarbiyadagi xatolik bu haddan ortiq qattiqqo'llik hisonlanadi. Bunda bola mustaqil qaror qabul qila olmasligi, qo'rquv kabi holatlar vujudga keladi. “Haddan tashqari taqiqlar. Ko'pincha ota-onalar “yo'q” so'zini suiiste'mol qilishadi. Bu Vyacheslav Poluninning eski pantomimasida

bo'lgani kabi chiqadi: chapga qadam , o'nga qadam – hamma narsa yomon. Bunga javoban ,ko'plab bolalar faol norozilik bildiradilar:ular ota-onalarining gipernazoratiga reaksiya sifatida qoidalarni ataylab buzishni boshlaydilar.”(I.M.Rasulova) Ba'zi oilalarda ota –onalar ish bilan band bo'lishi yoki boshqa shaxsiy muammolar sababli bolaga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Bu esa bolaning tarbiyasini buzilishiga olib keladi. Bola tarbiyasidagi bu kabi xatolar uzoq muddat davom etsa, bola kelajakda o'ziga ishonchsiz, passiv yoki agressiv shaxs sifatida rivojlanishi mumkin. Bugungi zamon oilasida farzand tarbiyasi masalasi murakkab tus olib bormoqda. Axborot oqimi ota-onalarning bandligi va raqamli texnologiyalarga haddan ortiq berilib ketish holatlari bolalarga bo'lgan e'tiborning kamayishiga olib kelmoqda. E'tiborsizlik esa bolaning ruhiy barqarorligiga, o'ziga ishonchiga va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'satadi . Shuning uchun zamonaviy ota-onalar tarbiya jarayonida nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy va hissiy tomondan ham farzandlariga yaqin bo'lishlari zarur. Farzand tarbiyasida muhimi - unga qancha vaqt ajratilgani emas , balki o'sha vaqt qanday mazmunli o'tganida. Chunki tarbiya faqat jismoniy yaqinlikdan iborat bo'ladigan jarayon emas. Psixologlar ta'kidlaganidek, bola uchun eng muhim narsa - e'tibor sifati, ya'ni ota-onaning diqqatini to'liq ravishda farzandga qaratishi, uni tinglashi va tushunishga harakat qilishi. Shu sababli bola 10 daqiqa lekin, to'liq e'tibor bilan suhbatlashgan onani bir soat telefon bilan chalg'igan yonida o'tirgan onadan ko'ra yaqinroq his qiladi.

Ota-onalar xatolarini qanday tuzatishi mumkin?

Ota –onalar tarbiyaviy xatolarini tuzatish uchun avvalo xatolarini aniqlashi kerak. Ko'p hollarda ortiqcha talabchanlik , bolaning fikrini inobatga olmaslik, e'tiborsizlik xatolar sifatida namoyon bo'ladi. Ota-ona o'z xatti-harakatlarini kuzatib, bola bilan muloqot, rag'bat kabi narsalarni ko'proq qo'llashi kerak. Shu orqali bolani qiziqishlarini bilib olish mumkin. Ota-onani tarbiyaviy bilimni oshirish , tarbiya jarayonida xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Bolaning fikri va his-tuyg'larini hurmat qilish, unga qaror qabul qilish jarayonida o'z fikrini aytish imkonini yaratish bolaning mas'uliyat va o'zini qadrlash hissini shakllantiradi. Oilaviy muhitni yaxshilash-birgalikda vaqt o'tkazish , ko'proq muloqotda bo'lish ham xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tarzda ota –onalar o'z yondashuvlarini doimiy takomilllashtirib, bolani mustaqil, ma'suliyatli va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo'shadi. Ota – onaning hayoti farzand tarbiyasini buzmasligi mumkin , qachonki ,ota – ona bu xatolarini tan olib, mehr va tuzatishga intilsa. Farzandni to'g'ri tarbiyalash –bu mukammal bo'lish emas , balki har kuni yaxshiroq bo'lishga urinishdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.M.Rasulova.(2024). “Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi” uslubiy qo‘llanma .Toshkent.(158-bet).
2. Tohir Malik. (2018). “Talvasa” yoxud “Alvido bolalik”ning yangi talqini. Toshkent:O‘qituvchi nashriyoti.
3. V. M. Karimova.(2007). “Oila psixologiyasi”.Toshkent-2007.

